



## BUXGALTERIYA AXBOROTINING MIQDOR VA SIFAT JIHLARI BILAN BOG'LIQ MASALALAR

**Raxmatova Shaxnoza**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-7378-8575

[shaxnozarahmatova1991@gmail.com](mailto:shaxnozarahmatova1991@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining uzluksizligini ta'minlash, moliyalashtirish manbalarini jalb etish hamda boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilishda buxgalteriya axborotining miqdor va sifat jihatlari muhim omil ekanligi yoritilgan. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini manfaatdor foydalanuvchilar, xususan tijorat banklari, investorlar va kreditorlar nuqtai nazaridan shaffof, aniq, ishonchli va iqtisodiy mazmuniga mos holda taqdim etish bilan bog'liq mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, moliyaviy tahlil jarayonida ayrim balans moddalari iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqib qayta tasniflanishi orqali buxgalteriya axborotining miqdoriy va sifat tavsiflari uyg'unligini ta'minlash, natijada korxonaning to'lovga qobiliyatligi hamda moliyaviy barqarorligini haqqoniy baholashga xizmat qiluvchi yondashuvlar asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya axboroti, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), debitorlik qarzi, tovar-moddiy zaxiralar, sifat tavsifi, miqdor tavsifi, moliyaviy tahlil, likvidlik ko'rsatkichlari.

## ВОПРОСЫ, СВЯЗАННЫЕ С КОЛИЧЕСТВЕННЫМИ И КАЧЕСТВЕННЫМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ БУХГАЛТЕРСКОЙ ИНФОРМАЦИИ

**Рахматова Шахноза**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной статье раскрывается значимость количественных и качественных характеристик бухгалтерской информации как важного фактора обеспечения непрерывности деятельности хозяйствующих субъектов, привлечения источников финансирования, а также эффективного принятия управленческих решений. Проанализированы существующие проблемы, связанные с представлением показателей финансовой отчетности с точки зрения заинтересованных пользователей, в частности коммерческих банков, инвесторов и кредиторов, в прозрачной, точной, достоверной форме и в соответствии с их экономическим содержанием, а также разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на их устранение. В частности, обоснованы подходы, обеспечивающие согласованность количественных и качественных характеристик бухгалтерской информации посредством переклассификации отдельных статей бухгалтерского баланса исходя из их экономической сущности в процессе финансового анализа, что в конечном итоге способствует объективной оценке платежеспособности и финансовой устойчивости предприятия.

**Ключевые слова:** бухгалтерская информация, финансовая отчетность, Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), дебиторская задолженность, товарно-материальные запасы, качественная характеристика, количественная характеристика, финансовый анализ, показатели ликвидности.

## ISSUES RELATED TO THE QUANTITATIVE AND QUALITATIVE CHARACTERISTICS OF ACCOUNTING INFORMATION

**Rakhmatova Shakhnoza**

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article highlights the importance of quantitative and qualitative characteristics of accounting information as a significant factor in ensuring the continuity of business entities' operations, attracting financing sources, and making effective managerial decisions. Existing problems related to presenting financial reporting indicators in a transparent, accurate, reliable manner and in accordance with their economic substance from the perspective of interested users, particularly commercial banks, investors, and creditors, are analyzed, and scientific proposals and practical recommendations aimed at eliminating these problems are developed. In particular, approaches are substantiated that ensure the consistency of quantitative and qualitative characteristics of accounting information through the reclassification of certain balance sheet items based on their economic substance during the financial analysis process, thereby contributing to an objective assessment of the enterprise's solvency and financial stability.*

**Keywords:** *accounting information, financial statements, International Financial Reporting Standards (IFRS), accounts receivable, inventories, qualitative characteristics, quantitative characteristics, financial analysis, liquidity indicators.*

### **Kirish.**

Jahonda iqtisodiyotida investorlar, kreditorlar va boshqaruv subyektlari tomonidan qabul qilinayotgan iqtisodiy qarorlarning sifati bevosita buxgalteriya axborotning nafaqat miqdor balki sifat tavsiflariga ham bog'liqdir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha konseptual asoslarga ko'ra buxgalteriya axborotining asosiy sifat tavsiflari sifatida ahamiyatlilik (moslik) - (relevance) va haqqoniy aks ettirish (haqqoniy taqdim etish) - (faithful representation) belgilangan bo'lib, taqqoslanuvchanlik, tekshiriluvchanlik, o'z vaqtida taqdim etilish va tushunarlik qo'shimcha sifat tavsiflari sifatida e'tirof etiladi. Mazkur konseptual asos talablari asosida moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun axborot nafaqat to'liq, balki iqtisodiy mazmuniga mos bo'lishi zarur. Amaliyotda esa ayrim balans moddolari rasmiy tasnif bo'yicha to'g'ri aks ettirilgan bo'lsa-da, tahliliy baholash jarayonida iqtisodiy mohiyatni to'liq ifodalamasligi mumkin. Shu sababli buxgalteriya axborotining miqdoriy ko'rsatkichlarini sifat jihatdan takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Buxgalteriya axborotining miqdor va sifat jihatidan uyg'unligi foydalanuvchilarga taqdim etilayotgan moliyaviy hisobotlarning foydalilik darajasini bevosita oshiradi. Bu borada tadqiqotchi olimlar, mualliflar tomonidan ilmiy izlanish va o'rganishlar olib borilgan. Jumladan, Adashaliyevning (2024) fikricha, buxgalteriya balansida aks ettirilgan qisqa muddatli investitsiyalar to'g'risidagi axborotni miqdor va sifat jihatdan uyg'unligi aktivlar likvidligini baholashda hamda to'lov qobiliyati koeffitsiyentlarini aniqlashda tahlil natijalarini yanada haqqoniylikni oshiradi (Adashaliyev, 2024). Fikrimizcha, bu to'g'ri yondashuv bo'lib, mazkur axborotdan tahlil maqsadida yanada batafsil o'rganilgan holda foydalanish maqsadga muvofiq.

Muallif Mavlanovning (2019) ta'kidlashicha, buxgalteriya balansida aktivning 211, 250, 270, 280 va 290 satrlarda keltirilgan buxgalteriya axborotlari miqdor jihatdan debitorlik qarzlari katta ulushga ega bo'lishiga qaramasdan sifat jihatdan qaralganda subyektning kreditga layoqatligini baholashda o'z ahamiyatini yo'qotadi. Shu sabab keltirilgan satrlarni chegirgan holda kreditga layoqatlik aniqlanganda subyektning haqiqiy moliyaviy holatini ko'rish mumkin. Albatta, buxgalteriya axborotining sifati, uning foydalanuvchilar uchun foydali bo'lishi bilan belgilanadi, shu sababdan, nazarimizda, tijorat banklari va boshqa moliyaviy

institutlar subyektning haqqoniy kreditga layoqatliligini aniqlashida muallifning ushbu ko'rsatmasi juda salmoqli o'ringa ega.

Turdiyeva (2019) tadqiqot ishida kredit va ularning foizini o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun hisob siyosatida uzoq muddatli kreditorlik qarzlarning joriy muddatli kreditorlik qarzlariga o'tkazilgan qismi to'g'risida axborot keltirilishi haqida ta'kidlagan. Bundan kelib chiqib, shuni qayd etish mumkinki, subyektning moliyaviy holatini, uni to'lovga layoqatligini haqqoniy baholashda nafaqat aktivlar balki uning passivlari, xususan majburiyatlarini to'g'ri inobatga olish zarur.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada subyektning moliyaviy holatini baholashda, moliyaviy ko'rsatkichlarni haqqoniy aniqlashda buxgalteriya axborotining miqdor va sifat jihatdan o'rganishda kuzatish, manbalarni tahlil qilish, induksiya va deduksiya, taqqoslash va iqtisodiy – statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ma'lumki, buxgalteriya axborotining miqdor tavsifi deganda, albatta foydalanuvchi nazarida korxonalar aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromad va xarajatlarining son jihatdan ifodalanishi gavdalanadi. Qolaversa, moliyaviy hisobotlarda keltirilgan axborot xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy tahlili uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ammo miqdoriy ko'rsatkichlarning rasmiy shakldagi ifodasi ayrim hollarda tahliliy natijalarning aniqligini pasaytiradi. Masalan, 21-sonli buxgalteriya hisobining milliy standartlariga ko'ra, buxgalteriya balansining (standart, 2025):

- 250 – satr – xodimlarga berilgan bo'naklar;
- 260 – satr – mol yetkazib beruvchilarga berilgan bo'naklar;
- 160 – satr – tugallanmagan ishlab chiqarish;
- 240 – satr – sho'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar to'g'risida keltirilgan

buxgalteriya axborotini iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda qayta guruhlash maqsadga muvofiq. Chunki, ushbu satrlardagi buxgalteriya axboroti foydalanuvchi uchun birmuncha mavhum bo'lib, uning asosida qabul qiladigan qarorlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, korxonada xodimlarga berilgan bo'naklar amaliyotda ko'pincha oylik ish haqi bo'yicha berilgan bo'naklar tasavvurini uyg'otadi. Vaholanki unda ish haqi bo'yicha berilgan bo'naklardan boshqa yana kichik inventar va xo'jalik anjomlari uchun, xizmat safari bilan bog'liq va boshqa berilgan bo'naklar ham aks etadi.

Bunday axborot korxonaning xodimlari oldida ish haqi bo'yicha qarzi mavjud yoki aksincha ekanligini aniqlashda noto'g'ri tahlil natijalarini keltirib chiqaradi. Bu esa korxonaning moliyaviy holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarini hisoblashda noaniqliklar, xato hisob – kitoblarni yuzaga keltirib, axborotning tahliliy qiymatini tushiradi. Shu sababdan, buxgalteriya balansining 250 satrda keltirilgan 4230 – hisobvaraqa doir axborotni debitorlik qarzdan balansning tovar-moddiy zaxira (TMZ) tarkibida aks ettirish ko'proq mantiqqa to'g'ri keladi, negaki ushbu kichik inventar va xo'jalik buyumlari juda qisqa muddatda TMZga aylanadi.

Bundan tashqari, 4300-hisobvaraqa axborotlarini jamlab ko'rsatuvchi balansning 260 satrini tahlil qilish orqali undagi axborot ham korxonalar likvidlik ko'rsatkichlarini sun'iy ravishda oshirayotganligiga guvoh bo'lish mumkin. Bunga sabab qilib, ushbu hisobvaraqa jamlangan analitik hisobvaraqa ma'lumotlari, xususan, mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga tovar – moddiy zaxira hamda uzoq muddatli aktivlar xaridi uchun o'tkazilgan bo'naklarning birgalikda joriy debitorlik qarzi sifatida tahlil qilinishi ularni aks ettirilgan davrdan axborot foydalanuvchilarga taqdim etilgan davrigacha ular debitorlik qarzdorligi shaklidan mos ravishda TMZ va uzoq muddatli aktivga aylangan bo'ladi. Bu esa o'z navbatda axborotning o'rinli bo'lish (relevance) sifat xususiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari, likvidlik ko'rsatkichlarini sun'iy oshirib ko'rsatishga sabab bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki,

buxgalteriya axborotining sifat tavsifi uning dolzarbligi (o'rinli, ahamiyatli) va haqqoniy aks ettirilishida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlarni yanada ochib berish uchun axborot – taqqoslanuvchan, tekshiriluvchan, o'z vaqtida taqdim etilinishi va tushunarli bo'lishi lozim (1-jadval).

1-jadval

## Buxgalteriya axborotining miqdor va sifat tavsifi

1	Tavsif turi	Mazmuni	Moliyaviy hisobotdagi namoyon bo'lishi	Tahliliy ahamiyati
1	Miqdor tavsifi	Buxgalteriya axborotining pul ifodasida, son jihatdan o'lchanishi va moliyaviy ko'rsatkichlar orqali aks etishi	balans moddalari summolari, daromad, xarajat, foyda, aktiv va majburiyatlar qiymati	korxonaning moliyaviy holati, likvidligi, rentabelligi va to'lovga qobiliyatligini hisoblash imkonini beradi
	Sifat tavsifi	<b>Buxgalteriya axborotining boshqaruv, investitsion va kreditlash bo'yicha qarorlarini qabul etishda uning foydaliligi, yaroqliligini va haqqoniy aks etganligini ta'minlovchi xususiyatlar to'plami</b>	Axborot -dolzarblik va haqqoniy aks etgan bo'lib, buni uning tekshiruvchanligi, o'z vaqtida taqdim etilganligi hamda manfaatdor foydalanuvchilarga birdek tushunarligi ekanligi bilan izohlanadi.	Korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini aks ettirib, to'lov qobiliyati va likvidlilik ko'rsatkichlarini aniq baholash orqali investor va kreditorlar uchun ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, boshqaruv qarorlarini samaradorligini oshiradi
2	Sifat tavsifi: Dolzarblik, ahamiyatlilik (relevance)	Axborot foydalanuvchining iqtisodiy qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatishi	investor va kreditor uchun muhim bo'lgan ko'rsatkichlarning ajratib ko'rsatilishi	kelgusidagi qarorlar uchun foydali ma'lumot beradi
3	Sifat tavsifi: haqqoniy aks ettirish (faithful representation)	Axborot iqtisodiy mazmuni to'liq, xolis va xatolarsiz ifodalashi	aktiv va majburiyatlarning real iqtisodiy mohiyatga mos aks ettirilishi	moliyaviy holatni noto'g'ri talqin qilish xavfini kamaytiradi
4	Sifat tavsifi: taqqoslanuvchanlik (comparability)	Turli davrlar va subyektlar bo'yicha ko'rsatkichlarni solishtirish imkoniyati	hisobot siyosatining izchil qo'llanilishi	dinamik va tarmoqlararo tahlilni osonlashtiradi
5	Sifat tavsifi: tekshiriluvchanlik (verifiability)	Axborotning mustaqil tekshiruv orqali tasdiqlanishi	boshlang'ich hujjatlar va registrlar bilan asoslanishi	auditorlik va nazorat jarayonida ishonchlilikni oshiradi
6	Sifat tavsifi: o'z vaqtida taqdim etilish (timeliness)	Axborot qaror qabul qilish uchun zarur vaqtda yetkazilishi	hisobotlarning belgilangan muddatlarda tuzilishi	tezkor boshqaruv qarorlarini ta'minlaydi
7	Sifat tavsifi: tushunarlilik (understandability)	Axborot foydalanuvchilar uchun sodda va aniq bo'lishi	moliyaviy hisobot izohlarining ravshanligi	manfaatdor foydalanuvchilar tomonidan to'g'ri talqin qilinadi

**Manba:** Moliyaviy hisobot tuzishning Konseptual asosining asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Balansda taqdim etilgan yana bir munozarali satr bu 160 –satr bo'lib, tugallanmagan ishlab chiqarish miqdorini aks ettiradi. Fikrimizcha, uni alohida tahliliy guruh sifatida ajratish maqsadga muvofiq. Sababi shundaki, tugallanmagan ishlab chiqarishning iqtisodiy mohiyati va likvidlik darajasi boshqa zaxiralardan farq qiladi. Mazkur aktiv hali yakuniy mahsulot shakliga ega bo'lmagani sababli, pul mablag'lariga aylanishi ishlab chiqarish jarayonining tugallanishiga bog'liq va past likvid hisoblanadi. Shu bois uni umumiy zaxiralar tarkibida qoldirish korxonalar likvidligini sun'iy ravishda oshirib ko'rsatishi mumkin. Tugallanmagan ishlab chiqarishni alohida tahliliy guruh sifatida ajratish esa aktivlarning haqiqiy likvidlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi hamda moliyaviy hisobotning haqqoniyligi va ishonchligini oshiradi.

Natijada korxonaning to'lovga qobiliyati yanada aniq baholanadi va foydalanuvchilar uchun sifatli moliyaviy axborot shakllanadi.

Xuddi shunday, alohida yondashuv talab qiladigan balans axborotlaridan yan biri bu sho'ba korxonaning debitorlik qarzi hisoblanib, odatda umumiy debitorlik tarkibida aks ettiriladi. Biroq bunday yondashuv har doim ham mazkur aktivlarning iqtisodiy mazmunini to'liq ifodalaymaydi. Chunki sho'ba korxonalariga tegishli debitorlik qarzlarning muhim qismi ichki xo'jalik operatsiyalari natijasida yuzaga kelib, ular yakuniy bozor realizatsiyasi bilan emas, balki guruh ichidagi harakat bilan bog'liq bo'ladi.

Amaliyotda ko'p hollarda bosh korxonalar tomonidan sho'ba korxonaga yetkazib berilgan mahsulotlar hali uchinchi shaxslarga sotilmagan bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda debitorlik qarzlarni yuqori likvid aktiv sifatida baholash iqtisodiy jihatdan asosli bo'lmay, aksincha, mazkur mablag'lar aslida hali realizatsiya qilinmagan tovar-moddiy zaxiralar shaklida mavjud bo'lib, ularning pul mablag'lariga aylanishi keyingi sotuv bosqichiga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, sho'ba korxonalar bilan bog'liq debitorlik qarzlarni tahlil qilishda ularni iqtisodiy mazmuniga ko'ra qayta tasniflash maqsadga muvofiqdir. Xususan, agar mahsulot yakuniy iste'molchiga yetib bormagan bo'lsa, bunday debitorlikni shartli ravishda tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga o'tkazish mumkin. Mazkur yondashuv 10-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti hamda 23 – sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot va sho'ba korxonalariga investitsiyalar hisobi" talablari bilan hamohang bo'lib, guruh doirasidagi operatsiyalarni yagona iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Natijada debitorlik qarzlarning haqqoniy likvidlik darajasi aniqlanadi, korxonaning to'lovga qobiliyati ko'rsatkichlari sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilishining oldi olinadi hamda moliyaviy hisobot axborotining haqqoniyligi ta'minlanadi. Bu esa investorlar va kreditorlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, sho'ba korxonalar bilan bog'liq debitorlik qarzlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra qayta tasniflash moliyaviy tahlilning aniqligini oshiruvchi muhim metodik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, buxgalteriya axborotining rasmiy miqdoriy ko'rsatkichlari har doim ham sifat jihatdan to'liq iqtisodiy mazmunni ifodalaymaydi. Shu sababli tahlil nuqtai nazaridan ayrim balans moddalari iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qayta tasniflanishi zarur:

- xodimlarga kichik inventarlar va boshqa qiymatliklar xarid qilish uchun berilgan bo'naklarni buxgalteriya balans debitorlik qarzi tarkibidagi hisobotda ko'rsatilishi buxgalteriya axborotini noto'g'ri shakllanishiga olib kelishi va bunday maqsaddagi bo'naklarni tahlil maqsadida tovar-moddiy zaxira tarkibida hisobga olish;

- korxonalar to'lov qobiliyati va boshqa ko'rsatkichlarini aniqlashda tovar-moddiy zaxira xarid qilish uchun berilgan bo'naklarni 140-satrga, asosiy vosita va boshqa uzoq muddatli aktiv xarid qilish uchun berilgan bo'naklarni mos ravishda 010 va boshqa uzoq muddatli aktivlarni hisobga oluvchi satrlarga qo'shib hisobga olish;

- tovar – moddiy zaxiralar tarkibidagi tugallanmagan ishlab chiqarish moddasini (160-satr) axborotni sifatli tahlil qilish va likvidlik jihatidan tovar – moddiy zaxira tarkibidan chiqarib, alohida ko'rsatish;

sho'ba korxonaga bo'yicha debitorlik qarzini o'rganish asosida uni pul mablag'iga yoki tovar – moddiy zaxiraga o'tkazish asosida tahlil ko'rsatkichlariga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq.

### Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, buxgalteriya hisobi axborotlarining miqdor va sifat jihatlarini uyg'unligini saqlash korxonaning moliyaviy holatini yanada haqqoniy baholash imkonini beradi. Ayniqsa, aktivlar tarkibini iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib qayta tasniflash moliyaviy tahlil natijalarining aniqligini oshiradi hamda qaror qabul qilish jarayonida ishonchli axborot bazasini shakllantiradi. Shu asosda quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Tugallanmagan ishlab chiqarishni (160-satr) alohida tahliliy guruh sifatida ajratish tavsiya etiladi. Bu orqali aktivlarning haqqoniy likvidlik darajasi aniqlanadi va joriy hamda tezkor likvidlik ko'rsatkichlarining sun'iy oshirilib ko'rsatinishi bartaraf etiladi;

2. Sho'ba korxonalar bilan bog'liq debitorlik qarzlarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra qayta tasniflash zarur. Xususan, realizatsiya qilinmagan mahsulotlar bo'yicha debitorlikni shartli ravishda tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga o'tkazish moliyaviy natijalarning haqqoniyligini ta'minlaydi hamda konsolidatsion yondashuvni kuchaytiradi.

3. 250-satr (xodimlarga berilgan bo'naklar)ni mazmuniga ko'ra qayta guruhlash maqsadga muvofiq. Agar mazkur mablag'lar tovar-moddiy boyliklar xaridi uchun ajratilgan bo'lsa, ularni shartli ravishda TMZ tarkibiga o'tkazish orqali debitorlik qarzlarining sun'iy oshirilishi oldi olinadi va aktivlarning iqtisodiy mohiyati aniqroq ifodalanadi.

4. 260-satr (yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar)ni maqsadli yo'nalishiga ko'ra ajratish tavsiya etiladi. Xususan, aylanma aktivlar uchun berilgan bo'naklarni TMZ tarkibiga, uzoq muddatli aktivlar uchun berilgan qismini esa asosiy vositalar tarkibiga shartli ravishda o'tkazish aktivlarning tarkibiy tuzilishini aniqlashtiradi.

5. Tovar-moddiy zaxiralarni likvidlik darajasiga ko'ra chuqurlashtirilgan guruhlash va "shartli balans" usulini qo'llash zarur. Bu yondashuv orqali an'anaviy va qayta tasniflangan ko'rsatkichlar solishtirilib, korxonaning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobiliyati yanada aniq baholanadi hamda Konseptual asos tamoyillariga muvofiq hisobot axborotining sifat darajasi oshadi. Shunday qilib, taklif etilgan yondashuvlar balans ko'rsatkichlarini iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib qayta tasniflash orqali moliyaviy tahlilning aniqligini oshiradi, likvidlik ko'rsatkichlarining ishonchliligini ta'minlaydi va investorlar hamda kreditorlar uchun yanada sifatli axborot bazasini shakllantiradi.

### Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Adashaliyev B.V. (2024) *Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lovga layoqatliligini barklar faoliyatiga ta'sirini baholash yo'llari // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, – B.58.*

BHMS №21 (2025) *"Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash yo'riqnomasi".*

BHMS №23 *"Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot va sho'ba korxonalariga investitsiyalar hisobi".*

*IFRS Conceptual Framework. – International Accounting Standards Board (IASB), London.*

Mavlanov N. (2019) *Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, – B.15.*

*Qonun (2016) O'zbekiston Respublikasi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi 404- sonli Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent.*

*Turdiyeva G. (2019) Xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent.*